




TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-fevral)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.


2022- yil yanvar-fevral oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 856,8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 124,9 mln. AQSh dollariga yoki 17,1 %ga ko'paydi.






TSAda eksport hajmi 294,2 mln. AQSh dollariga (o‘shish sur‘ati – 105,8 %) va import hajmi 562,6 mln. AQSh dollariga (o‘shish sur‘ati – 124,0 %) yetdi. Hisobot davrida 268,4 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-fevral, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O‘ZGARISH SUR‘ATLARI (2021- yil yanvar-fevralga nisbatan, %da)





TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-fevral, mln. AQSh dollari)


| Davlatlar nomlari | TSA | Eksport | Import | Ulush, %da |
|---------------------------|-------|---------|--------|------------|
| Xitoy | 194,1 | 66,7 | 127,4 | 22,7 |
| Rossiyskaya Federatsiya | 176,0 | 64,7 | 111,3 | 20,5 |
| Qozog'iston | 135,9 | 17,6 | 118,3 | 15,9 |
| Turkiya | 104,6 | 76,8 | 27,7 | 12,2 |
| Koreya Respublikasi | 38,0 | 0,9 | 37,1 | 4,4 |
| Braziliya | 35,1 | 0,0 | 35,1 | 4,1 |
| Ukraina | 21,3 | 10,0 | 11,4 | 2,5 |
| Polsha | 13,4 | 3,1 | 10,3 | 1,6 |
| Germaniya | 12,3 | 1,0 | 11,3 | 1,4 |
| Afgoniston | 11,7 | 11,7 | 0,0 | 1,4 |
| Tojikiston Respublikasi | 10,2 | 8,5 | 1,6 | 1,2 |
| Qirg'iz Respublikasi | 8,3 | 6,0 | 2,3 | 1,0 |
| Italiya | 8,1 | 4,2 | 3,9 | 0,9 |
| Eron (Islom Respublikasi) | 6,5 | 0,1 | 6,3 | 0,8 |
| Belarusiya | 6,5 | 4,8 | 1,7 | 0,8 |
| Hindiston | 6,0 | 1,0 | 5,0 | 0,7 |
| Argentina | 5,0 | 0,0 | 5,0 | 0,6 |
| Pokiston | 5,0 | 0,2 | 4,8 | 0,6 |
| Nederlandiya | 4,8 | 4,0 | 0,8 | 0,6 |
| Daniya | 4,7 | 0,0 | 4,7 | 0,6 |



Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 42,5 %ni hamda o'sish sur'ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 101,5 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning yanvar-fevral oylarida 57,5 %ni (2021- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 50,9 %ni tashkil qilgan), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,1 %ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2022- yil yanvar-fevral, % hisobida)






TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2022- yil yanvar-fevral, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Koreya Respublikasi va Braziliya davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-fevral)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2022- yil yanvar-fevral oylari yakuni bilan 294,2 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2021- yilning shu davriga nisbatan 105,8 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,3 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (70,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (9,5 %), turli xil tayyor buyumlar (10,6 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (4,0 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (2,5 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (2,5 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-fevral)

| Tarkibi | Mln. AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, %da | | |
|--|-------------------|----------------|------------------|-----------------------------|----------------|------------------|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| Jami eksport | 294,2 | 114,3 | 179,9 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| shu jumladan: | | | | | | |
| oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 27,9 | 10,9 | 17,0 | 9,5 | 9,5 | 9,4 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,3 | 0,3 | 0,0 | 0,1 | 0,3 | 0,0 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) | 11,9 | 7,3 | 4,6 | 4,0 | 6,4 | 2,5 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar | 0,1 | 0,1 | 0,0 | 0,0 | 0,1 | 0,0 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 0,1 | 0,1 | 0,0 | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 7,4 | 5,5 | 1,9 | 2,5 | 4,8 | 1,1 |
| Sanoat tovarlari | 206,4 | 51,7 | 154,7 | 70,2 | 45,3 | 86,0 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalar | 7,3 | 7,2 | 0,1 | 2,5 | 6,3 | 0,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 31,2 | 30,6 | 0,6 | 10,6 | 26,7 | 0,4 |
| Xizmatlar | 1,6 | 0,6 | 1,0 | 0,6 | 0,6 | 0,6 |






MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2022- yil yanvar-fevral)

2022- yilning yanvar-fevral oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2021- yilning mos davriga nisbatan, mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

| Tarkibi | 2021- yilning shu davriga nisbatan, %da | | |
|--|---|----------------|------------------|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| Jami | 105,8 | 129,3 | 94,8 |
| shu jumladan: | | | |
| oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 92,2 | 98,0 | 88,9 |
| Ichimliklar va tamaki | 118,9 | 140,6 | 16,4 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) | 120,2 | 2,2 m. | 69,4 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar | 3,5 m. | 233,9 m. | 0,0 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 11,6 | 6,4 m. | 0,0 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 92,2 | 106,3 | 67,0 |
| Sanoat tovarlari | 104,3 | 125,4 | 98,7 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunolari | 139,4 | 2,0 m. | 5,0 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 129,9 | 129,5 | 151,9 |
| Xizmatlar | 88,3 | 3,2 m. | 59,5 |



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-fevral)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Afg'oniston, Ukraina va Tojikiston hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 256,0 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 87,1 %ini tashkil qiladi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 13,1 mln. dollar qiymatga ega 13,4 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2021- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 27,0 %ga kamaygan, naturada – 47,5 %ga kamaygan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 7,5 mln. AQSh dollariga teng 9 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 53,4 %ga kamaygan), shuningdek, 2,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi 1,9 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 11,7 %ga kamaygan).

2022- yil yanvar-fevral, mln. AQSh dollari



Meva va
rezavorlar

1,9 ming
tonna

2,8 mln.
AQSH dollari



Uzum

2,0 ming
tonna

2,1 mln.
AQSH dollari



Yeryon-
g'oqlar

0,5 ming
tonna

0,6 mln.
AQSH dollari



Sabzavotlar

9,0 ming
tonna

7,5 mln. AQSH
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2022- yilning yanvar-fevral oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 10,3 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 3,5 %ini tashkil qiladi.




TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-fevral)

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-fevral oylari mobaynida import hajmi 562,7 mln. AQSh dollari (2021-yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 124,0 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (27,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,3 %), sanoat tovarlari (19,1 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (14,6 %), hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (10,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA
XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-fevral)**

| Tarkibi | mln. AQSh dollari | | | umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|-------------------|----------------|------------------|------------------------------|----------------|------------------|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| Jami import | 562,6 | 250,0 | 312,6 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 103,1 | 44,7 | 58,4 | 18,3 | 17,9 | 18,7 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,6 | 0,6 | 0,0 | 0,1 | 0,3 | 0,00 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) | 82,3 | 77,9 | 4,4 | 14,6 | 31,1 | 1,4 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar | 14,1 | 13,9 | 0,2 | 2,5 | 5,6 | 0,1 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 8,6 | 8,4 | 0,2 | 1,5 | 3,4 | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar | 56,8 | 13,6 | 43,2 | 10,1 | 5,5 | 13,8 |
| Sanoat tovarlari | 107,7 | 70,1 | 37,6 | 19,1 | 28,0 | 12,0 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 152,0 | 16,1 | 135,9 | 27,0 | 6,4 | 43,5 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 27,8 | 3,1 | 24,7 | 4,9 | 1,3 | 7,9 |
| Boshqa tovarlar | 1,5 | 1,5 | 0,0 | 0,3 | 0,6 | 0,0 |
| Xizmatlar | 8,1 | 0,1 | 8,0 | 1,4 | 0,0 | 2,6 |

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (31,1 %), sanoat tovarlari (28,0 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (43,5 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,7 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-fevral, % hisobida)

| Tarkibi | 2021- yilning shu davriga nisbatan, %da | | |
|---|---|----------------|------------------|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| Jami | 124,0 | 92,4 | 170,7 |
| shujumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 140,8 | 111,0 | 177,1 |
| Ichimliklar va tamaki | 112,3 | 117,4 | 2,2 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) | 97,0 | 97,2 | 94,1 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar | 38,1 | 37,6 | 168,5 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 59,8 | 58,3 | 3,5 m. |
| Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar | 179,1 | 156,9 | 187,4 |
| Sanoat tovarlari | 130,0 | 119,3 | 156,1 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 139,8 | 53,5 | 172,8 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 166,7 | 4,1 m. | 154,9 |
| Boshqa tovarlar | 0,0 | 0,0 | 0,0 |
| Xizmatlar | 2,2 m. | 53,0 | 2,2 m. |





VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-fevral)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Xitoy, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Koreya Respublikasi, Braziliya, Turkiya va Ukraina hamkor davlatlaridan jami import hajmi 468,3 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 80,4 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.: (71) 202-86-59